

## Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni matnida forsiy sifatlar

**Kurbanova Zaynab Burxanovna** - stajyor o‘qituvchi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

(+99891 598-16-86) [zaynabqurbonova20@gmail.com](mailto:zaynabqurbonova20@gmail.com)

### Annotatsiya

Bu maqolada Alisher Navoiy adabiy merosini adabiy nuqtai nazardan o‘rganishimiz va tadqiq etishimiz qanchalik zarur va ahamiyatli bo‘lsa, uning asarlari tilini hamda asarlari tili misolida o‘zbek adabiy tili lingvistikasi bo‘yicha qilgan buyuk ishlarini tilshunoslik nuqtai nazardan o‘rganish zarur va ahamiyatli ekani haqidadir.

### Kalit so‘zlar

O‘rta Osiyo, “Farhod va Shirin” “Layli va Majnun”, tilshunoslik, fors, arab, lig‘at, zebo.

Bizga ma‘lumki, IX asrga kelib O‘rta Osiyoda arab xalifaligi yemirilib taqdir taqazosi bilan Buxoraga markazlashgan Somoniylar davlati vujudga keldi. Natijada Somoniylar davlatida fors tili davlat va rasmiy til sifatida arab tilining o‘rnini egalladi. Shuningdek, fors tili IX-XV asrlarda O‘rta Osiyo, Xuroson, Eron, Afg‘oniston va Hindistonning ma‘lum bir hududi xalqlariga yagona bir grammatik qoidaga asoslangan adabiy til sifatida xizmat qildi. Hatto, Mashhur Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy ham o‘sha davrda yashab, “Layli va Majnun” dostoni muqaddimisini fors tilida yozgan.

Shuningdek, Alisher Navoiy yashagan davrda ham fors tiliga e‘tibor kuchli edi, chunki o‘sha davrda fors adabiyoti namoyandalari ko‘p va ular katta nufuzga ega bo‘lib, mazkur tilda buyuk-buyuk asarlar yaratmoqda edilar. Shuning uchun ham fors tilining har tomonlama mavqei boshqa tillarga nisbatan sezilarli darajada baland edi. Shunga qaramasdan o‘zbek xalqining faxri bo‘lgan Alisher Navoiy o‘zbek tilini fors tili mavqe darajasiga o‘zi yaratgan asarlari tili misolida ko‘tardi. U o‘zining o‘ttizdan ortiq asarlari bilan o‘zbek adabiy tili mavqe va shuhratini nafaqat Xuroson va O‘rta Osiyo balki, butun jahonga yoydi.

Jumladan, uning o‘zbek adabiy tilida yozgan asarlarida ko‘plab forscha o‘zlashma so‘z va iboralar, shuningdek, so‘z birikmalari hamda ayrim qo‘shimchalar uchraydi. Mazkur forscha so‘zlarini tilshunos olimlarimiz uning ikki tilda birdek, bir vaqtning o‘zida ijod qiganligi bilan izohlaydilar.

Alisher Navoiyning aytishicha “turkning kattadan kichigigacha, xizmatkoridan begigacha sart (fors) tilidan bahramanddirlar. Hatto, turk shoirlari forsiy tilda rangdor she’rlar va hikoyalar yuzaga chiqara olarlari”.

Bizga ma’lumki, o‘zbek xalqi tili tarixining qadimgi davrlari hozirgi kungacha to‘liq o‘rganilmagan. “O‘sha davrda yaratilgan yozma yodgorliklar va ularning til xususiyatlari hozirgi zamon o‘zbek tilshunosligi talabi darajasida ilmiy tadqiq etilmagan”

Shuning uchun ham o‘zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyot davriga nazar tashlar ekanmiz, boshqa tillardan o‘zbek adabiy tiliga o‘zlashgan so‘z va shakllar turli davrlarda turlicha ijtimoiy sabablarga ko‘ra kirib kelgan. Shu sababli o‘zbek adabiy tilining lug‘at tarkibidagi so‘zlar tarixiy shakllanishiga ko‘ra faqat, turkiy tillarga xos bo‘lmay, balki fors, arab, mug‘ul, uyg‘ur tili so‘z va iboralariga ham xosdir.

Dunyoda lug‘at boyligi o‘z so‘zlaridan tashkil topgan hech bir xalq yoki millat tili yo‘q. Shuning uchun ham boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar o‘sha tilda o‘z shaklini va ma’nosini qanday bo‘lsa, shundayligicha saqlab qolgan va ularning grammatik qurilishi, so‘z yasalishi, imlo va talaffuz qoidalari asosida uyg‘unlashgan. O‘zbek adabiy tili va shevalariga boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar ko‘proq so‘zlashuv hamda kitobiy tillar orqali o‘zlashgandir.

Bu borada shuni ta’kidlab o‘tishimiz joizki, adabiy tilimizga arabcha so‘zlar ko‘proq kitobiy til orqali, forscha so‘zlar esa so‘zlashuv nutqi orqali o‘zo‘lashgan.

Tarixdan bizga ma’lumki, o‘zbek va fors xalqlari azaldan yonma-yon yashab, bir-birlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatda bo‘lib kelganlar. Bu haqida tojikistonlik akademik B.G‘ofurov shunday yozadi: “O‘zbek va fors xalqlari o‘rtasida yaqinlik melodiy asrdan boshlangan”.

Mazkur xalqlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalar eramizning IX-XV asrlarida yanada mustahkamlandi. Natijada, o‘zbek adabiy tili o‘z lug‘at tarkibini forscha o‘zlashma so‘zlar hisobiga boyitdi.

Shu sababli ham hozirgi kunda “O‘zbek adabiy tili leksikonida ko‘proq maishiy, san’at, hayvonot dunyosi, o‘simliklar, qishloq xo‘jaligi, tabiat hodisalari, vaqt-masofa, o‘rin-joy va boshqa sohalarga oid forscha so‘zlar uchraydi”.

Shuning uchun biz o‘zbek adabiy tilini tarixini o‘rganish maqsadida mumtoz adabiyotimiz namoyandalarining bizga qoldirgan qimmatli boy ma’naviy meroslarini ham adabiy, ham tilshunoslik nuqtai nazardan tadqiq etishimiz o‘rinli bo‘ladi.

Ayniqsa, Alisher Navoiy adabiy merosini adabiy nuqtai nazardan o‘rganishimiz va tadqiq etishimiz qanchalik zarur va ahamiyatli bo‘lsa, uning

asarlari tilini hamda asarlari tili misolida o‘zbek adabiy tili lingvistikasi bo‘yicha qilgan buyuk ishlarini tilshunoslik nuqtai nazardan o‘rganish zarur va ahamiyatlidir. Bu sohada tilshunos olimlarimiz tomonidan qilingan ishlar tahsinga sazovor, lekin hali ham o‘rganilmagan bir qator qirralari mavjud.

Alisher Navoiy asarlari tilini o‘rganish yana ko‘p asrlar davom etishi mumkin. Uning asarlari tilida istifoda etilgan arabcha, forscha so‘zlarni o‘zbek tilshunosligi nuqtai nazardan ilmiy o‘rganish alohida ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

Buyuk shoir, mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy buyuk tilshunos olim sifatida o‘zbek adabiy tiliga birinchilardan bo‘lib asos solgan, uni shakllantirish va rivojlantirish yo‘lida o‘zining katta hissasini qo‘shgan mutafakkirlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham o‘zbek adabiy tilining rivojlanishi va taraqqiyoti haqqoniy ravishda Alisher Navoiyning tabarruk nomi bilan bog‘liqdir.

“Farhod va Shirin” dostoni tilida hozirgi o‘zbek adabiy tilida iste’molda bo‘lgan forscha asliy sifatlar ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Biz ularni dostonidan baytlar keltirish asnosida tilshunoslik nuqtai nazardan ilmiy tahlilini imkoniyatimiz darajasida amalga oshiramiz.

Asliy sifatlar o‘zbek adabiy tili grammatikasida “predmetning to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgisini anglatadi”-deb ta’riflanadi va “bunday sifatlar qaydagi so‘zlarni kiritish mumkin” deyiladi va misol tariqasida mazkur so‘zlar keltiriladi: oq, qizil, sariq, pushti, yaxshi, yomon, katta va hokazo.

Fors tilida ham xuddi o‘zbek adabiy tilidagi singari predmetning belgisini anglatuvchi asliy sifatlar bor. Ular o‘zbek tili asliy sifatlar kabi darajalanadi.

O‘zbek tilida predmetning belgisini darajalab ko‘rsata oladigan –roq qo‘shimchasini erkin qabul qila oladigan sifatlar asliy sifatlar deyiladi.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni tilida qo‘llanilgan va hozirgi o‘zbek adabiy tilida muomalada bo‘lgan forscha asliy sifatlar asardan iqtibos sifatida keltirilgan quyidagi baytlarda ham ko‘rishimiz mumkin:

Ki chun bu uyda qilg‘ung naqsh debo,

Kerak uy tarhi dog‘i bo‘lsa zebo.

Yasalsun borcha oyin birla zebo,

Tutulsun borig‘a iksunu debo.

Demak, dostonidan misol tariqasida keltirilgan baytlarning har ikkalasida ham forscha asliy sifatlardan “zebo” so‘zi qo‘llanilgan. Ushbu so‘zni shoir o‘zbek adabiy tilidagi “chiroyli” so‘zi o‘rnida unga ekvivalent sifatida ishlatgan va bu bilan asar tilini rang-barangligini ta’minlagan. Shu sababli ham uning asarlari tili o‘sha davr xalq tiliga yaqin bo‘lib, o‘ziga xos mukammalligi bilan ajralib turadi. “Zebo” so‘zi hozirgi kunda ham o‘zbek adabiy tilida muomalada qo‘llanib kelinmoqda va

ko‘pincha “chiroyli” so‘zi, ya’ni so‘z turkumi jihatidan asliy sifat o‘rnida ishlatiladi. Shundan ko‘rinib turibdiki, mazkur “zebo” so‘zini o‘zbek adabiy tiliga Alisher Navoiy kabi so‘z ustalari olib kirganlar va bu bilan o‘zbek adabiy tilining xuddi fors tili kabi nazmdagi ifoda imkoniyatini kengaytirishda hamda asar syujetining izchilligini ta’minlashda istifoda etganlar.

“Zebo” so‘zining o‘zbekcha “chiroyli” so‘zi o‘rnida qo‘llanilganligini mazkur baytlarning mazmunidan ham bilib olishimiz mumkin:

Birinchi baytning mazmuni:

Uyning ichi qanchalik chiroyli bo‘lsin desang, bu uydagi matolarga shuncha naqsh ber.

Ikkinchi baytning mazmuni:

Hamma joyni oddiy yo‘l bilan chiroyli qilaman desang, barcha joyga qora atlas matoni tut.

Ikkala baytda shoir forscha “zebo” asliy sifatini to‘rt marta qo‘llaganligini guvohi bo‘ldik. Ushbu so‘zni to‘rt marta ham “chiroyli” so‘zi o‘rnida ishlatilganligini ko‘rdik.

Shuningdek, muallif o‘z asari tilida forscha “chobuk” so‘zini ham bir necha bor qo‘llaganiki, ushbu so‘z ham forscha asliy sifatlar sirasiga kiradi, lekin hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikonida deyarli uchramaydi. Ammo bu so‘zni Alisher Navoiy, Bobur kabi mumtoz adabiyotimiz namoyandalari asarlari tilida ko‘plab uchratishimiz mumkin. Alisher Navoiy ushbu so‘zni o‘zining “Farhod va Shirin” dostoni tilida 12 marta qo‘llagan. Mazkur so‘z ekvivalent jihatidan hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi “chaqqon” so‘zi ifodalaydigan ham leksik ham grammatik ma’noga mos keladi. Asar tilida ham xuddi shunday ma’noda, so‘z turkumi jihatidan sifat o‘rnida qo‘llanilgan. Ushbu fikrimizni biz asarda mazkur so‘z ishlatilgan bir nechta baytni iqtibos tariqasida keltirish asnosida dalillaymiz:

Sumanbar bori zebou nozuk,

Hunarvarlar bag‘oyat chustu chobuk (38-bet).

Yana bir ustodi chobuk erdi,

Ki ham luk, san’ati ham nozuk erdi .

Ki ey chobuk sipahdori dilovar,

Qo‘lingda baxt yoru charx yovar .

Biz forscha asliy sifat bo‘lmish “chobuk” so‘zi qatnashgan uchta baytni asardan misol tariqasida keltirdik. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, mazkur so‘z o‘zbek tiliga “chaqqon” so‘zi leksik ma’nosida tarjima qilinadi. Shoir ham “chobuk” so‘zini har uchchala baytda ham o‘z ma’nosida qo‘llagan. Buni baytning mazmunidan ham anglab olishimiz mumkin:

Birinchi baytning mazmuni:

Nozaninlarning barchasi chiroyli va nozik edi,

Usta hunarmandlar ham shunga o‘xshab g‘oyatda harakatchan va chaqqon edilar.

Demak, birinchi baytning mazmuniga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, muallif ushbu bir baytning o‘zida forscha to‘rtta asliy sifatni qo‘llagan. Ular: zebo, nozuk, chust, chobuk. Bulardan zebo-chiroyli; nozuk-nozik; chust-harakatchan; chobuk-chaqqon kabi ma‘noni ifodalaydi. Mazkur keltirilgan forscha sifatlarning barchasi baytda xuddi “chobuk” so‘zi kabi o‘z leksik ma‘nosida qo‘llanilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov G‘., Rustamov A. Navoiy tilining grammatik xususiyatlari. –T.: «Fan», 1984.81-88.B
2. B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova.; O‘zbek tili o‘qitish metodikasi Toshkent-2016.108-112.B
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажегимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2017. – 113 б.
4. Адабиёт назарияси. 1 жилд. – Тошкент: Фан, 1978. – 416 б.
5. Адабиёт назарияси. 2 жилд. – Тошкент: Фан, 1979. – 306 б.
6. Адабий турлар ва жанрлар. Уч томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1991. – 382 б.
7. Абдуллаева Ш., Ҳомидий Ҳ., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлар луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – 300 б.
8. Абдуваҳобова М. Портрет – характеристика психологик таҳлил воситаси сифатида // Ўзбек тили ва адабийоти. 1983. – 5-сон.
9. Аристотел. Поэтика. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. – 152 б.
10. Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. Жўракулов У таржимаси. – Тошкент: Академнашр, 2015. – 286 б.
11. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2002. – 560 б.
12. Қ.Йўлдошев - Роман ва бугунги ўзбек романчилиги - “Шарқ юлдузи”, 2011–4-сон 131-б
13. Йўлдошев Қ., Йўлдошева М. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2015. – 280 б.14.
14. Musina G‘. O‘zbek xalq dostonlarida хотин– qizlar obrazi. – Toshkent: Fan, 1983. – 104 б.
15. Норматов У. Бугунги насримиз тамойиллари Жаҳон адабиёти. 1997. – 3-сон.